
Navro'z bayrami, barchamizga muborak bo'lsin!

Aziz yurtdoshlar!

Ona diyorumizga, barchamiz orziqib kutgan, go'zal va dilbar fasl – Navro'zi olam kirib kelmoqda.

Ana shu ulug' ayyom – sharqona yangi yil bilan, kattayu kichik barcha yurtdoshlarimizni, chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Mana shu qutlug' kunda siz azizlarga, sihat-salomatlik, baxt va omad, oilalaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman.

Muhtaram do'stlar!

Bu yilgi Navro'z bayrami, barcha shahar va qishloqlarimizda, umumxalq sayillari tarzida o'tayotgani, unga o'zgacha fayz va shukuh bag'ishlamoqda.

Navro'zi olam yurtimizga tinchlik-omonlik, baxtu saodat, qut-baraka olib kelsin!

Har bir oila, har bir xonadonda yaxshi kunlar, to'y-tomoshalar ko'p bo'lsin!

Barchamizning ezgu orzu-niyatlarimiz ushalsin!

Osmonimiz musaffo, yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin!

Navro'z bayrami, barchamizga muborak bo'lsin!

Dilshodxon Islomov

SamDCHTI akademik litseyi ijrochi direktori.